



TERGOVGA QADAR TEKSHIRUVDA EKSPERTIZANING O'ZIGA HUQUQIY XUSUSIYATLARI

¹**Bozorov Maqsudali Maxmudovich**

Toshkent davlat yuridik universitetining

Ixtisoslashtirilgan filiali Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi,

²**Abdixatov Temur Rovshan o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universitetining

Ixtisoslashtirilgan filiali. 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7539766>

ARTICLE INFO

Received: 04th January 2023

Accepted: 14th January 2023

Online: 16th January 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

Barchamizga ma'lumki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida¹ qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish borasida qilinayotgan vazifalar nafaqat ichki ishlar organlari, balki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Barchamizga ma'lumki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida¹ qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish borasida qilinayotgan vazifalar nafaqat ichki ishlar organlari, balki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Mazkur islohotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan shaxs, davlat va jamiyatning huquq va qonuniy manfaatlarini g'ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish, jamoat tartibini va jamiyat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi².

Sud-huquq sohasida tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini tergov qilish asosiy o'rinni egallaydi. Shulardan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish faoliyati jinoyat sodir etgan sub'ektni topish hamda jinoiy javobgarlikka tortish uchun tegishli tergovga qadar tekshiruv faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlar tomonidan jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinuvchi jinoyat-protsessual faoliyat bo'lib, jinoyat ishining tez, to'la, xolisona, har tomonlama tergov harakatlarini amalga oshirilishini hamda jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan adolatli jazo berilishi va qonun hujjatlarining to'g'ri tatbiq etilishining ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Tergovga qadar tekshiruv deganda, jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalarini bajarishga qaratilgan, Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solingan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l



qo'ymaslik, dalillarni to'plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmas tergov va boshqa barcha harakatlarni o'tkazish faoliyatidan iborat bo'lgan ishni sudga qadar yuritishning alohida shakli tushuniladi³.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 320²-moddasiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarni o'z ichiga olishi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Tergovga qadar tekshiruv davomida kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- 1.Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish;
- 2.Ushlab turish;
- 3.Shaxsiy tintuv va olib qo'yish;
- 4.Ekspertiza;
- 5.Taftish tayinlash.

Kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari deganda, sodir etilgan jinoyatning (hodisaning) xususiyatlari, ya'ni sodir etish usuli, joyi, vaqti, uni sodir etgan shaxsning kimligi, shuningdek, jinoyat aniqlangunga qadar o'tgan vaqtni hisobga olgan holda ushbu jinoyatni ochish va fosh etish maqsadida tez va mantiqiy izchillikda amalga oshirilishi talab etiladigan tergov harakatlari tizimi tushuniladi⁴. Shulardan, ekspertiza ko'magisiz ijtimoiy xavfli qilmishlarni tez va to'la ochish, jinoyat hamda huquqbuzarlik sodir etgan sub'ektlarga adolatli jazo turini qo'llash, aybi bo'lmagan hech bir shaxs jinoiy hamda ma'muriy javobgarlikka tortilmasligi, shuningdek, sud tomonidan aybi isbotlanmagan shaxslarga nisbatan hukm qilinmasligi uchun jinoiy hamda ma'muriy hodisa yuzasidan aybdorlarni fosh etish hamda odil sudlov faoliyatini amalga oshirish jarayonini bugungi kunda tasavvur etib bo'lmaydi.

Ekspertiza mustaqil tergov harakati hisoblanib, protsessual qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda va talablarga mos holda o'tkazilishi lozimdir. Ekspertiza jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida keltirilgan talablarga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin, ya'ni tergovga qadar tekshiruv jarayonida ham o'tkazilishi mumkinligi belgilangan.

Tergovga qadar tekshiruv davomida ekspertiza tayinlash uchun asosli sabab bo'lishi lozim. Shundan so'ngina tergovga qadar tershiruv faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan qaror chiqariladi va qarorda ekspertiza o'tkazish uchun asoslar aniq holda keltirilishi shart. Jinoyat-protsessual kodeksining 180-moddasi talablariga asosan, qarorda ekspertiza tayinlash uchun asos bo'lgan sabablar; ekspertizaga yuborilayotgan ashyoviy dalillar va boshqa ob'ektlar, ularning qachon, qaerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi; ish materiallari bo'yicha ekspertiza o'tkazishda esa ekspert xulosasi asoslanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar; ekspert oldiga qo'yilgan savollar; ekspertiza muassasasining nomi yoki ekspertiza o'tkazish topshirilgan shaxsning familiyasi ko'rsatilishi shartligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Ekspertning faoliyati ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi qaror, shuningdek, ekspertizadan o'tkazilishi shart bo'lgan ob'ekt ekspertga topshirilgan paytdan boshlab ekspert o'z faoliyatini boshlaydi.



O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybliybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanishi, bunda dalillarga jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari bilan bir qatorda ekspertning xulosasi ham kirishi keltirilgan. Ekspert xulosasini baholash, uni maqbul dalil sifatida foydalanish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sudning vakolatiga taalluqlidir.

Ekspertiza xulosasiga baho berayotgan shaxsning ichki ishonchi – uning ish holatlarini har tomonlama va xolisona ko'rib chiqib, ish holatlarining barcha jihatlarini umumlashtirigan holda fikrlab, o'z mulohazasining to'g'riligi va haqqoniyligiga ishonch bilan qarashi demakdir. Ya'ni, tergovchining ekspert xulosasiga bo'lgan munosabati jinoyat protsessi har qanday boshqa ishtirokchisining fikr mulohazasiga asoslanmasligi kerak. Shu bilan birga, ichki ishonch asosli va o'z izohiga ega bo'lishi zarur. Ish bo'yicha dalilarning tanqidiy ko'rib chiqib va baholab, muayyan xulosaga kela turib, tergovchi tegishli protsessual hujjat – ayblovl xulosasida bu xulosa nimaga tayanishini asoslab berishi lozim⁵.

Hozirgi kunda sud ekspertiza huquqbuzarlik, jinoyatlarni ochishda, xqiqatni aniqlashda axamiyati tobora oshib bormoqda.

Ekspertizaning ahamiyati nimalarda ko'zga tashladi?

Birinchidan, sud huquqni muxofaza qiluvchi organlar va sudlarning ehtiyojidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, ekspert xulosalariga ishonchli va maqbul dalil manbai sifatida katta ishonch bilan qaralishini bildiradi. Shundan ko'rinib turibdiki, ekspertiza huquqbuzarliklarni huquqbuzarlik deb, jinoyatni esa jinoyat sifatida shakllanishi uchun asosiy vositalardan biri sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu soha faoliyatiga oid taklifni berish mahsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ekspertiza faoliyatiga oid yagona qonun hujjatini, ya'ni kodeks yaratish lozim (huddi Saylov kodeksi kabi). Boisi, ekspertiza foliyati, shuningdek ekspertlar faoliyatini tartibga soluvchi yagona tizimlashtirilgan qonun hujjati mavjud emas. Ushbu sohani kodeklashtirish orqali sohani ham yagona tizimga keltirgan xolda faoliyatini tashkillashtirish mumkin. Ushbu taklif qilinayotgan qonun hujjati ham boshqa kodeklar singari umumiy qism va maxsus qismlardan iborat bo'ladi. Umumiy qismda ekspertiza faoliyatiga oid bo'lgan umumiy qoidalar keltiriladi. Maxsus qismda esa, umumiy qismda keltirilgan ekspertiza turlarining qanday o'tkazilishi to'g'risidagi va boshqalar keltiriladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. – 6 –70-m.; 20. – 354-m.; 23.– 448-m.; 37.–982-m.



2. Tergovga qadar tekshiruvni yuritish: O'quv amaliy qo'llanma/ Tuzuvchi-mualliflar: I.J.Babamuradov, B.E.Berdialiev, M.A.Sattorov, A.A.Sultonov; O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri, general-mayor P.R.Bobojonovning umumiy tahriri astida. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2019. – 3-b.
3. Tergovga qadar tekshiruvni yuritish: O'quv amaliy qo'llanma/ Tuzuvchi-mualliflar: I.J.Babamuradov, B.E.Berdialiev, M.A.Sattorov, A.A.Sultonov; O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri, general-mayor P.R.Bobojonovning umumiy tahriri astida. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2019. – 5-b.
4. Tergovga qadar tekshiruvni yuritish: O'quv amaliy qo'llanma/ Tuzuvchi-mualliflar: I.J.Babamuradov, B.E.Berdialiev, M.A.Sattorov, A.A.Sultonov; O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri, general-mayor P.R.Bobojonovning umumiy tahriri astida. – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2019. – 5-b.
5. Jinoyat ishlarini yuritishda ekspertiza:mazmuni, ahamiyati, tayinlash va o'tkazish asoslari. Uslubiy qo'llanma. – T.: "Sharq", 2016.– 67-b.
6. Maqsudali Maxmudovich Bozorov (2022). GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHIGA HIMOYALANISH HUQUQI KAFOLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (7), 56-61.
7. Maxmudovich, B. M., & temur Rovshan o'g'li, A. (2022). Problems of Realization of the Sovereignty of the Institute" Habeas Corpus Act" in the Criminal Procedure. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 46-50.
8. Bozorov, M. M. (2022). JINOYAT HUQUQIDA JAZONI OG 'IRLASHTIRUVCHI HOLATLARNI QO 'LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(7), 46-54.
9. Mahmudovich, B. M. (2022). THE CONCEPT OF CRIME AND THE CLASSIFICATION OF ITS FEATURES. Conferencea, 21-23.
10. Maqsudali Maxmudovich Bozorov GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHIGA HIMOYALANISH HUQUQI KAFOLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gumon-qilinuvcchi-va-ayblanuvcchiga-himoualanish-huquqi-kafolatlarini-takomillashtirish-istiqbollari> (дата обращения: 24.11.2022).